O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA'MINLASh DEPARTAMENTI NAVOIY VILOYAT HUDUDIY BO'LIMI

15 -UM - sonli

BUYRUG'I

"23" iyul 2025 yil Navoiy shahri

"Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida"

Umumiy yurisdiksiya sudlari va hududiy bo'limi ish faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida moliyalashtirilgan pul mablag'laridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni ta'minlash, mahsulot yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida raqobatni rivojlantirish hamda sotib olinadigan tovar-moddiy boyliklarni va ko'rsatiladigan pullik xizmatlar sifatini oshirish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risidagi" 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasiga qo'yilsin hamda yangi binolar qurish, mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha, xom ashyo materiallari, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarning eng yaxshi tanlov takliflari asosida xarid qilinishida ushbu Qonun talablariga rioya qilinsin;

2. 2025-yilning 23-iyul kunidan boshlab, umumiy yurisdiksiya sudlariga va hududiy bo'lim ehtiyoji uchun, tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravaridan olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etishi kerak bo'lgan, ishlarning, xizmatlarning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi kerak bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilish, binolarni mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha hududiy bo'lim tomonidan shartnomalar tuzishning faqatgina tanlov komissiyasining eng yaxshi tanlov takliflari asosida amalga oshirilishi tartibi davom ettirilsin.

3. 2025-yilning 23-iyul kunidan boshlab Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining Navoiy viloyat hududiy bo'limining tanlov komissiyasi quyidagi tarkibda yangidan tashkil etilsin:

- Buranov Akmal Kunuzakovich - hududiy bo'lim boshlig'i, komissiya raisi;
- Jiyanov Abdusamat Boboqulovich - hududiy bo'lim bosh hisobchisi, komissiya raisi o'rinbosari;
- Mamatov Jonibek Faxriddin o'g'li - hududiy bo'lim bosh muxandis, komissiya a'zosi;
- Jamilova Nargiza Usmankulovna - hududiy bo'lim xo'jalik mudiri, komissiya a'zosi;
- Djurayeva Dilarom Qobilovna - hududiy bo'lim rahbar kotibi, komissiya kotibasi;

4. Umumiy yurisdiksiya sudlari va hududiy bo'limi ehtiyoji uchun tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilish yangi binolar qurish hamda binolarda mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalarni tuzishdan oldin tanlov o'tkazishda tanlov komissiyasidan quyidagi masalalarga alohida e'tibor berilishi talab etilsin;

- tovar moddiy qiymatliklarni yetkazib berish yoki pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini zimmasiga olayotgan korxonalarning huquqiy maqomi va moliyaviy ahvoli hamda shartnomada ko'zda tutilgan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya)ga ega ekanligi yuzasidan;

-tovar moddiy qiymatliklarni yetkazib berish yoki pullik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha imzolanishi lozim bo'lgan shartnoma bandlarida tomonlar, xususan hududiy bo'lim manfaatlarining huquqiy himoya etilganligi o'rganilsin.

5. Belgilab qo'yilsinki, tanlov komissiyasi tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish yoki pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'tkazilgan tanlov yakuni to'g'risida bayonnoma imzolasin.

6. Tanlov tashkil etish va o'tkazish, tanlov hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni saqlash uchun tanlov komissiyasi raisi o'rinbosari, hududiy bo'lim bosh hisobchisi A.Jiyanov mas'ul etib tayinlansin.

7. Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining Navoiy viloyat hududiy bo'limi boshlig'ining 2021-yil 17-dekabrdagi "Xarid komissiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 23-UM-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu buyruqni bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Hududiy bo'lim boshlig'i v.v.b. **B.D.Raximov**